

**SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN INTERAKTIV TA’LIM
PLATFROMALARI VA ULARNING XORIJIY TILLARNI
O‘QITISHDAGI O‘RNI**

Saydullayeva Munisa Abduvali qizi

Tayanch doktorant, O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, O‘zbekiston
saydullayeva.munisa@gmail.com

Annotatsiya. ushbu maqolada sun’iy intellektga asoslangan interaktiv ta’lim platformalarining xorijiy tillarni, jumladan, ingliz tilini o‘qitishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekistonda raqamli ta’limning rivojlanishi, SI texnologiyalarining qo’llanilishi va ushbu jarayonda duch kelinadigan muammolar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar, xorijiy til o‘qitish, gamifikatsiya.

Zamonaviy ta’lim, rivojlanib borayotgan raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim platformalarining qo’llanilishi xorijiy tillarni, jumladan ingliz tilni o‘qitishda muhim o‘rin egallab kelmoqda. Bu kabi platformalar o‘qituvchi uchun dars jarayonida har bir o‘rganuvchiga individual yondashish, ularning bilim darajasiga moslashtirilgan savol va topshiriqlarni berish hamda real vaqt rejimida tekshirib tahlil qilish imkoniyatlarini yaratadi [4].

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlar sun’iy intellektning keng qamrovli qo’llanilishiga urg‘u bermoqda. Chunki globallashuv jarayonida ko‘plab ma’lumotlar elektron tarzda qabul qilinmoqda va ba’zan bu ma’lumotlarni chuqur tahlil qilishda inson ongi ojizlik qiladi. Shunday vaziyatlarda SIga asoslangan holda ish yuritish samaradorlikni bir necha barobarga oshirgan bo‘ladi. Sababi sun’iy intellekt texnologiyasi kompyuterlarni inson kabi shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, turli sohadan olingan katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘zlashtiradi va ularni tahlil qilish asosida qaror qabul qiladi. Bu borada yurtimizda ham bir qator chora-tadbirlar hayotga tadbiq etilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4996-son qarori qabul qilindi [1]. Qarorga muvofiq, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

doirasida bu kabi texnologiyalarni faol tadbiq etish, ulardan samarali foydalanish, malakali kadrlar uchun zarur shart sharoitlarni yaratish bo‘yicha vazifalar belgilab olingan.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning chet tili ko‘nikmalarini takomillashtirish jarayonida SI asosida ishlovchi turli platformlardan foydalanish, ularni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish o‘rinlidir. Bunday texnologiyalar bir nechta asosiy afzalliklarga ega:

1. Individual yondashuv - har bir o‘quvchining bilim darajasiga qarab moslashtirilgan topshiriqlar yaratish;
2. Tahliliy yondashuv - platformalar orqali o‘rganuvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatgichlarini nazorat qilib borish va kerakli tafsiyalarni berish;
3. Faollik va motivatsiyaning oshishi - gamifikatsiya usullari orqali interaktiv platformalaridan foydalanib o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish.

Xorijiy tillarni, jumladan, ingliz tilini o‘qitishda qo‘llaniladigan interaktiv platformlar juda ham ko‘p va ular bir nechta asosiy turlarga bo‘linadi [3].

Virtual reallik (Virtual reality and deep learning). Bu kabi plaftrormalarda yaratilgan topshiriqlar real hayot sharoitlariga o‘xshash muhitni yaratib beradi va o‘quvchilar uchun til ko‘nikmalarini yanada samarali mashq qilish imkonini beradi. Bunga misol sifatida “Duolingo” (<https://www.duolingo.com/>) platformasini keltirishimiz mumkin. Bunda foydalanuvchi til bilish darajasi va o‘rganishdan maqsadiga ko‘ra berilgan mavzulashtirilgan topshiriqlar orqali bilimi oshirishi mumkin. Masalan: “Restoranda”, “Aeoroportda” mavzulariga tegishli bo‘lgan kerakli so’zlar, iboralar bilan tanishish.

Gamifikatsiya (Gamification). Gamifikatsiya ingliz tilini o‘rganishda keng qo‘llanilib kelinayotgan usullardan biri bo‘lib, bunga o‘yin elementlarini o‘z ichiga olgan (ballar, reytinglar) platformalar misol bo‘la oladi. “Kahoot” (<https://kahoot.com/>) platformasi shular jumlasidandir [5].

“Ta’lim maydoni tendensiyalari: kompetentsiyalar, innovatsiyalar va texnologiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 2025-yil 25-aprel

The opposite of ‘become smaller’ is

Bu turdagি platformalarning deyarli barchasi sun’iy intellektga asoslangan bo‘lib, o‘qituvchiga ham o‘quvchiga ham ta’lim jarayonida yengilliklar yaratadi: o‘qituvchining vaqtini tejash va darslarni samarali, inetaktiv tarzda olib borishga hizmat qiladi.

Twee (<https://twee.com/>) platformasi o‘qituvchilar uchun ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi. Sun’iy intellekt asosida ishlovchi bu platforma turli topshiriqlarni tayyorlab berishi mumkin. Masalan: tinglab tushunish ko‘nikmasini YouTube orqali ko‘rsatilgan video yordamida takomillashtirmoqchi bo‘lsak, video linkini kirtishimizning o‘zi kifoya, platforma bizga sanoqli daqiqalar ichida o‘quvchilarning darajasiga mos bo’lgan savollarni tayyorlab beradi. O‘quvchilarning talab va qiziqsihlariga aynan mos bo’lgan materiallarni topishda qiyinchilikka duch kelinganda, bu platforma o‘qituvchiga qo’l keladi [2].

Tools for All CEFR Levels
Over 40 tools for every language skill

A: Reading Vocabulary Writing Speaking Grammar Listening Utility

- CEFR Level Checker** Quickly analyzes any text to determine its proficiency level according to the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR).
- Create a Text on Any Topic with Your Vocabulary** Creates a text on a certain topic. Can be used during a lesson or as a homework task after a...
- Audio & Video Question Creator** Upload your audio or video and create a list of open questions, multiple choice questions, or...
- Create ABCD Questions for a Text** Create a list of ABCD questions for a text with only one correct answer.
- Convert Audio & Video to Text** Create a transcript of the chosen audio or video that you can use in class. Simply upload...
- Create Open Questions for a Text** Creates a list of open questions. Ask your students these questions to make sure they...
- Word-Definition Matching** Automatically creates a matching exercise for a list of words. Ask your student to match the...
- Find Discussion Questions** Creates discussion questions on a given topic. You can use them as a warm-up or at any other...
- Fill in the Gap** Replaces all the chosen words in the text with gaps. Give a list of these words separately.
- Create True/False Statements for a Text** Creates a true/false reading exercise for the student to check if they understand the conte...
- Warm-Up Discussion Questions Before Listening** Creates discussion questions that you can use as a warm-up before a listening task. They invit...

Активация Windows
Чтобы активировать Windows, нажмите и пожалуйста

Sun’iy intellektga asoslangan platformalarni qo’llash jarayonida ba’zi muammolarni e’tirof etish muhimdir:

- o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish va qo‘llash savodxonligining kamligi;

- ba’zi hududlarda texnik imkoniyatlarning kamligi yoki umuman yetishmasligi

- mahalliy kontentning yetishmasligi – aksariyat platformalar chet davlatlarida ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning mazmuni o‘zbek talabalariga to‘liq moslashtirilmagan

Xulosa qilib aytganda, kelajakda sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish orqali O‘zbekistonda ingliz tilini o‘qitish samaradorligini oshirish mumkin. Shu sababli, ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish hamda sun’iy intellekt asosida yangi metodikalar ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar davom ettirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2021-yil 17-fevraldagи “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son qarori.

2. Sabirova O. (2024). Ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanish. Toshkent amaliy fanlar universiteti.

3. Basantes-Arias E.A., et al. (2022). Virtual Platforms and their Use to Teach and Learn English Online. Ciencias de la Educación.

4. Mamayoqubova Sh.O. (2024). Zamonaviy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish. SamDChTI.

5. Tuygunova Sh. (2024). Interactive Platforms: A New Perspective on Learning English. Samarkand State Institute of Foreign Languages.